O‘ZBEKISTON AVTOMOBILSOZLIK SANOATINING SHAKLLANISHI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI.

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Nuraliev Asror Anvarovich, ORCID 0009-0000-4498-4070
asroranvarovich1990@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoatining tarixiy ildizlari, mustaqillik yillarida tarmoqning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, 2016–2024-yillardagi ishlab chiqarish, eksport va mahalliylashtirish ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Pandemiya davrida tarmoqning barqarorligi, investitsiya loyihalari natijalari hamda bugungi kunda sohada mavjud muammolar ko‘rib chiqilib, ularni hal etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: avtomobilsozlik, “O‘zavtosanoat”, qo‘shma korxona, mahalliylashtirish, eksport, investitsiya, raqobatbardoshlik, elektromobil.

Аннотация. В статье анализируются исторические корни автомобильной промышленности Узбекистана, этапы её становления в годы независимости, показатели производства, экспорта и локализации в 2016–2024 гг., устойчивость отрасли в период пандемии, а также существующие проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: автомобилестроение, «Узавтосаноат», совместное предприятие, локализация, экспорт, инвестиции, конкурентоспособность, электромобиль.

Abstract. The article analyzes the historical roots of Uzbekistan’s automotive industry, the stages of its formation since independence, production, export and localization indicators for 2016–2024, the industry’s resilience during the pandemic, as well as current challenges and ways to address them.

Keywords: automotive industry, Uzavtosanoat, joint venture, localization, export, investment, competitiveness, electric vehicle.

Kirish

Avtomobilsozlik fan va texnika taraqqiyotini o‘zida mujassam etgan, jahon iqtisodiyotining etakchi tarmoqlaridan biridir. Rivojlangan davlatlar tajribasi ushbu sohaning multiplikativ xususiyatga ega ekanini ko‘rsatadi: avtomobilsozlikdagi bitta ish o‘rni metallurgiya, kimyo, neft-gaz, elektrotexnika va boshqa turdosh tarmoqlarda 7–8 ta ish o‘rnini yaratadi. Shu bois O‘zbekistonda avtomobilsozlik ichki bozor talabini qondirish, valyuta chiqib ketishini kamaytirish va eksport orqali to‘lov balansining ijobiy saldosini ta’minlashda alohida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoq sifatida qaraladi [6, B. 163]. Bugungi kunda respublika Markaziy Osiyoda yo‘lovchi va tijorat transport vositalarining to‘liq assortimentini ishlab chiqaruvchi yagona mamlakat bo‘lib, 1998-yildan buyon Xalqaro avtomobil ishlab chiqaruvchilar tashkiloti (OICA) a’zosi hisoblanadi.

O‘zbekistonda mashinasozlikning dastlabki korxonalari XX asr boshlarida vujudga kelgan bo‘lib, ular asosan temir yo‘l, paxta tozalash va yog‘ zavodlariga xizmat ko‘rsatuvchi 14 ta kichik ta’mirlash ustaxonasidan iborat edi; og‘ir sanoat va metallga ishlov berishning yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi bor-yo‘g‘i 1,3 foizni tashkil etgan [11, B. 23–25]. Ikkinchi jahon urushi yillarida respublikaga 25 ta mashinasozlik korxonasi evakuatsiya qilindi, ular orasida “Rostselmash” filiali va Samarqandga joylashtirilgan “Krasniy dvigatel” zavodi bor edi [12, S. 129]. Sovet davrida tarmoq asosan qishloq xo‘jaligi, birinchi navbatda paxtachilik uchun texnika ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi [3, B. 504–518].

Mustaqil avtomobilsozlik tarmog‘ining institutsional asosi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 17-martdagi 143-son qarori bilan yaratildi: “Qishloqxo‘jalikmash” konserni tugatilib, uning negizida “O‘zavtosanoat” O‘zbekiston avtomobilsozlik korxonalari uyushmasi ta’sis etildi [10]. 1996-yilda Asakada “UzDaewooAvto” qo‘shma korxonasi ishga tushirildi. Zavodda 1996-yilda 25,3 ming, 1997-yilda 64,9 ming, 2004-yilda 70 ming dona engil avtomobil ishlab chiqarildi; 1996–2006-yillarda jami 571 580 ta avtomobil tayyorlanib, ularning 198 609 tasi eksport qilindi va O‘zbekiston dunyoda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28-mamlakatga aylandi [5, B. 48–50; 13].

Avtobus va yuk avtomobillari yo‘nalishi Turkiyaning “Koç Holding” kompaniyasi bilan hamkorlikda shakllandi. Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 5-noyabrdagi 381-son qaroriga ko‘ra Samarqanddagi “AvtoVAZagregat” negizida “SamKochavto” qo‘shma korxonasi tuzildi va u 1999-yilda ishga tushirildi. Shu yilning oxirigacha 302 ta yuk avtomobili va 163 ta avtobus, 2000-yilda esa 483 ta avtobus va 102 ta yuk avtomobili ishlab chiqarildi. 2006-yilda “O‘zavtosanoat” turk hamkorlar ulushini sotib olib, korxona “SamAvto” deb qayta nomlandi va 2007-yildan Yaponiyaning “ISUZU Motors” kompaniyasi bilan hamkorlikda SAZ NP37, SAZ NP21 avtobuslari hamda NPR, NQR rusumli yuk avtomobillarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi [4, B. 59–61]. 2008-yilda “General Motors” bilan tuzilgan bitim asosida Asaka zavodi “GM Uzbekistan”ga aylantirildi va Nexia, Lacetti, Spark, Cobalt, Malibu kabi modellarni ishlab chiqarish boshlandi; 2009-yilda Germaniyaning “MAN” konserni bilan “MAN Auto–Uzbekistan” qo‘shma korxonasi tashkil etildi [13].

N.S. Abdullayeva tadqiqotida mustaqillik yillaridagi sanoatlashtirish strategiyasi asosida tarmoq rivojini bir necha bosqichga ajratadi: birinchi bosqich (1991–1995) mavjud salohiyatni saqlab qolish va importni o‘rnini bosuvchi tarmoqlarni rivojlantirish; ikkinchi bosqich (1995–2000) avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish va investitsiyalar oqimini ko‘paytirish; uchinchi bosqich (2000–2016) eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish, xususiylashtirish va mahalliylashtirishni jadallashtirish bilan tavsiflanadi [2, B. 53–54]. To‘rtinchi bosqich (2017–2021) Prezidentning PQ-3028-son qarori bilan belgilangan bo‘lib, yangi modellarni o‘zlashtirish, eksportni diversifikatsiya qilish, butlovchi qismlar ishlab chiqarishni chuqur mahalliylashtirish va tarmoqning valyuta siyosati liberallashtirilgan sharoitda barqaror rivojlanishini ta’minlashni nazarda tutadi [1].

Islohotlar natijasi tarmoq ko‘rsatkichlarida yaqqol namoyon bo‘ldi. I.U. Raximberdiyev ma’lumotlariga ko‘ra, 2010–2020-yillarda avtotransport vositalari, treylerlar va yarim priseplar ishlab chiqarish hajmi 3562,3 mlrd so‘mdan 33718,9 mlrd so‘mga o‘sgan, sohaning sanoatdagi ulushi 10–14 foiz oralig‘ida bo‘lib, 2020-

yilda 11,1 foizni tashkil etgan. 2020-yilda engil avtomobillar ishlab chiqarish 2017-yilga nisbatan 99,7 foizga, yuk avtomobillari 10,2 foizga oshgan, avtobuslar ishlab chiqarish esa 39,3 foizga kamaygan [6, B. 163–168]. 2020-yil davomida 280 080 dona engil avtomobil, 4163 dona yuk avtomobili va 642 dona avtobus ishlab chiqarildi. “O‘zavtosanoat” AJ korxonalarining eksporti 2016–2020-yillarda jami 639,5 mln dollarni tashkil etib, yillik eksport 55,1 mln dollardan 208,9 mln dollargacha, ya’ni 4,1 barobar o‘sdi; asosiy bozor Qozog‘iston bo‘ldi (2020-yilda 168,6 mln dollar) [14].

COVID-19 pandemiyasi jahon avtomobilsozligiga jiddiy zarba berdi: Moody’s agentligi baholariga ko‘ra, 2020-yilda jahon avtomobil bozori 20 foizga qisqargan. Biroq O‘zbekistonda pandemiyaning ta’siri nisbatan yumshoq o‘tdi: 2020-yil yanvar–iyun oylarida “O‘zavtosanoat” AJ korxonalarining sanoat mahsulotlari hajmi 16,9 trln so‘mga etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 108,9 foizni tashkil etdi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida 216 turdagi import butlovchi qism o‘zlashtirilib, 10 ta loyiha bo‘yicha 209,2 mlrd so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi [7]. Bu jarayonni 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan, 850,5 trln so‘m, shu jumladan 35,5 mlrd AQSH dollari xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirishni nazarda tutgan Investitsiya dasturi qo‘llab-quvvatladi [8].

Keyingi yillarda tarmoq raqobat va iste’molchi manfaatiga yo‘naltirilgan yangi bosqichga ko‘tarildi. “Chevrolet”dan tashqari “BYD”, “KIA”, “Hyundai” kabi brendlar bilan hamkorlikda zavodlar faoliyat yuritmoqda, Jizzaxda “BYD” bilan hamkorlikda elektromobil zavodi barpo etilib, Chazor va Song Plus Champion modellari ishlab chiqarilmoqda. 2024-yil yakunlari bo‘yicha taqdim etilgan hisobotga ko‘ra, avtomobilsozlikning mamlakat sanoatidagi ulushi 10 foizni tashkil etgan, 10 oyda 338 ming engil avtomobil ishlab chiqarilgan, 1400 turdagi butlovchi qism mahalliylashtirilgan, tannarx 4 foizga kamaygan, eksport hajmi 455 mln dollarga etgan. 2025-yil uchun 450 ming dona avtomobil ishlab chiqarish va 700 mln dollarlik eksport maqsad qilib qo‘yilgan [9].

Shu bilan birga, tarmoq oldida jiddiy muammolar ham mavjud. Birinchidan, jahon avtomobilsozligi oldindan aytib bo‘lmaydigan, tez o‘zgaruvchan sharoitda ishlamoqda: sanksiyalar, tarif urushlari va logistika cheklovlari ta’minot zanjirlari va investitsiya qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ikkinchidan, avtokreditlash darajasining o‘sishi bank tizimi uchun qo‘shimcha xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Uchinchidan, ehtiyot qismlar bozorini tartibga solish, sertifikatlash tizimini takomillashtirish va zamonaviy sinov laboratoriyalarini tashkil etish ehtiyoji saqlanib qolmoqda. Bu masalalarda O‘zbekiston avtomobil biznesi assotsiatsiyasi (ABA Uzbekistan) eskirgan avtomobillarni utilizatsiya qilish bo‘yicha Trade-Pull dasturi va “Toza Havo” ekologik loyihasi kabi tashabbuslarni ilgari surmoqda [15].

Хулоса қилиб айтганда O‘zbekiston avtomobilsozligi qishloq xo‘jaligi mashinasozligidan boshlangan uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tib, mamlakat iqtisodiyotining strategik “lokomotiv” tarmog‘iga aylandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tarmoqning keyingi barqaror rivoji uchun quyidagilar muhim: birinchidan, butlovchi qismlar va bazaviy xomashyo ishlab chiqarishni chuqur mahalliylashtirish orqali tannarxni pasaytirish; ikkinchidan, eksport geografiyasini MDH doirasidan kengaytirish va eksport mahsulotlarini diversifikatsiya qilish; uchinchidan, elektromobil va gibrid transport ishlab chiqarishni rivojlantirib, global texnologik o‘zgarishlarga moslashish; to‘rtinchidan, Andijon va Jizzaxda ochilgan muhandislik maktablari asosida milliy muhandis-konstruktor kadrlarini tayyorlash; beshinchidan, investitsiya dasturlari samaradorligini o‘zlashtirilgan mablag‘ hajmi bilan emas, jalb etilgan xorijiy investitsiyalar, yangi ish o‘rinlari va tannarxning pasayishi bilan baholash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-iyundagi “2017–2021-yillarda avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish va boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3028-son qarori //

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2017. – 23-son, 454-modda. – URL: https://lex.uz/docs/3226616

2. Abdullayeva N.S. O‘zbekistonda avtomobil sanoati tarixi (1992–2020-yy.): tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021.
3. Xoliqova R. O‘zbekistonda milliy avtomobil sanoati tarixidan // Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti: muammo va echimlar: III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Ma’rifat, 2023. – B. 504–518.
4. Imamov B.X. O‘zbekiston va Turkiya davlatlari o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar (1991–2018-yy.): monografiya. – Qarshi: Intellekt, 2021.
5. Mamajonov A.A. O‘zbekistonda avtomobil sanoatining rivojlanishi: tarixiy tahlil (1996–2020) // Ilm ham jamiyet. – 2021. – №3. – B. 48–50.
6. Raximberdiyev I.U. O‘zbekiston Respublikasida avtomobilsozlik sanoati va biznesini rivojlanish tendensiyalari // Экономика и социум. – 2022. – №10(101)-2. – B. 163–168.
7. Pandemiyaning O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoatiga ta’siri nisbatan yumshoq o‘tmoqda // Review.uz. – URL: https://review.uz/oz/post/pandemiyaning-ozbekiston-avtomobilsozlik-sanoatiga-tasiri-nisbatan-yumshoq-otmoqda
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4563-son qarori. – URL: https://lex.uz
9. Shavkat Mirziyoyevga avtomobilsozlik sanoati va 2025-yilga mo‘ljallangan rejalar bo‘yicha hisobot taqdim etildi // UzDaily.uz. – 2024. – 25-noyabr. – URL: https://www.uzdaily.uz/uzc/shavkat-mirziyoevga-avtomobilsozlik-sanoati-va-2025-yilga-mo%CA%BBljallangan-rejalar-bo%CA%BByicha-hisobot-taqdim-etildi/
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 17-martdagi “O‘zavtosanoat” O‘zbekiston avtomobilsozlik korxonalari uyushmasini tashkil

etish va uning faoliyati masalalari to‘g‘risida”gi 143-son qarori. – URL: https://lex.uz/docs/804503

11. Axmedov A., Saydaminova M. O‘zbekiston Respublikasi: qisqacha ma’lumotnoma. – 2-to‘ldirilgan nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993. – B. 23–25.
12. Вторая мировая война. Краткая история. – Москва: Наука, 1985.
13. O‘zbekiston avtomobilsozlik tarixi, rivojlanishi va bugungi kun istiqbollari // Aniq.uz. – URL: https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbekiston-avtomobilsozlik-tarixi-rivojlanishi-va-bugungi-kun-istiqbollari
14. Metallurgiya va mashinasozlik xodimlari kasaba uyushmasi rasmiy sayti. – URL: https://metmash.kasaba.uz/
15. ABA Uzbekistan faoliyati // Gazeta.uz. – 2026. – 26-yanvar. – URL: https://www.gazeta.uz/uz/2026/01/26/aba-uzbekistan/